



“Yangi O‘zbekiston Talabalari Olimpiadasi”

**“YANGI O‘ZBEKISTON TALABALARI OLIMPIADASI” OLIY TA‘LIM
TASHKILOTLARI O‘RTASIDA KOMPLEKS MUSOBAQALARINING
STOL TENNIS SPORT TURIDAN O‘TKAZILISH MUSOBAQA DASTURI**

ISHTIROK ETISH SHARTLARI – HAR BIR OLIY TA`LIM TASHKILOTI TALABALARI YAKKALIK VA MIKS BAHSLARIGA ALOHIDA JAMOA SHAKLLANTIRGAN HOLDA ISHTIROK ETADI. BUNDA YAKKALIKDA ISHTIROK ETGAN ISHTIROKCHILAR MIKS BAHLARIDA BIRGA ISHTIROK ETA OLMAYDI.

ISHTIROKCHILARDAN TALABALAR – HAR BIR JAMOA ISHTIROKCHILARI 1- BOSQICHDAN 3- BOSQICHGACHA BIR XIL SPORT FORMASIDA SHORTIK, FUTBOLKA, KRASOVKADA BO`LISHI SHART. RAKETKA VA SHARIKLAR XALQARO STOL TENNIS (ITTF) QOIDALARIGA MOS BO`LISHI KERAK. MIKS BAHSLARI HUDUDY BOSQICHIDA BOSHQA UNIVERSITET JAMOALARI BILAN BIRGA JAMOA SHAKLLANTIRISHGA YO`L QO`YILMAYDI.

O`YIN KIIYIMI YENGLI YOKI YENGSIZ KO`YLAK, SHORTIK YOKI SPORT YUBKASI, YOKI YAXLIT SPORT KOMBINZONI, PAYPOQ VA O`YIN POYABZALIDAN IBORAT BO`LISHI KERAK. BOSHQA BUYUMLARNI, MASALAN MASHG`ULOTLAR KOSTYUMI YOKI UNING BIR QISMINI O`YIN DAVOMIDA FAQAT BOSH HAKAM RUXSATI BILAN KIIYISH MUMKIN.

***MUSOBAQA O`TKAZILISHI TARTIBI*** – 1 – BOSQICH FAKULTET VA KAFEDRALAR O`RTASIDA 3 YOKI 4 JAMOADAN ORTIQ BO`LSA GURUH BOSQICHI O`TKAZILIB KEYINGI BOSQICH PLAY OFF TARZIDA O`TKAZILADI.



TALABNOMALAR 2 NUSXADA TASDIQLANGAN HOLDA RESPUBLIKA BOSQICHIDA OLIB KELINISHI VA TALABANING HEMIS MA`LUMOTNOMASI BIRGA BO`LISHI LOZIM.

- ▶ Musobaqa davomida yuzaga kelgan noaniqliklar, nizolarni bartaraf etishda, UTTF qonunchilik hujjatlari qoidalarini qoʻllaniladi.
- ▶ yakkalik – unda uchrashuv natijalari har bir ishtirokchi uchun alohida hisoblanadi;
- ▶ aralash juftlik - erkak va ayol sportchilardan iborat.
- ▶ olimpiya tizimi – bitta magʻlubiyatdan soʻng musobaqani tark etish tizimi.
- ▶ Talabnoma tegishli tashkilot tomonidan taqdim etilgan ism-shariflar roʻyxatida har bir ishtirokchining ismi-sharifi qarshisida shifokorning imzosi va muhri bilan qayd etiladi.



- ▶ Shariklar WTT seriyasining belgilangan 40+ shariklarida tashkil qilinadi.

- O'YIN UCHUN BOSH HAKAM TOMONIDAN TAKLIF QILINGAN BIR NECHTA SHARIKLARDAN BITTASINI TANLASH
- O'YIN BOSHLANISHIDAN OLDIN O'YIN STOLIDA 2 DAQIQA BADAN QIZDIRISH MASHQLARINI BAJARISH;
- O'YINLAR ORASIDAGI TANAFFUSLAR PAYTIDA YOKI BOSHQA TO'XTASH VAQTIDA MASLAHAT Olish;
- KEYINGI O'YIN BOSHLANISHIGA QADAR TUSHUNTIRISH Olish YOKI ILTIMOS BILAN MUSOBAQANING YETAKCHI HAKAMIGA MUROJAAT QILISH;
- AGAR ISHTIROKCHI YETAKCHI HAKAMNING TUSHUNTIRISHIDAN QONIQMASA, BOSH HAKAMGA MUROJAAT QILISHI MUMKIN. YAKKALIK BELLASHUVLARIDA BEVOSITA O'ZI, JAMOAVIY BAHSLARDA ESA VAKIL YOKI JAMOA SARDORI ORQALI MUROJAAT AMALGA OSHIRILADI;
- O'ZINING O'YIN FORMASINI TARTIBGA SOLISH UCHUN MUSOBAQA HAKAMI RUXSATI BILAN QISQA TANAFFUS Olish;
- HAR BIR O'YIN BOSHIDA VA HAL QILUVCHI O'YINDA TOMONLAR O'ZGARGANDA HAMDA HAR OLTI OCHKODAN KEYIN SOCHIQ BILAN ARTINIB Olish UCHUN QISQA TANAFFUS Olish;
- HAR BIR O'YINDAN KEYIN (AGAR O'YIN HALI TUGAMAGAN BO'LSA), 1 DAQIQAGACHA TANAFFUS QILISH;
- "TAYM-AUT" – ISTALGAN PARTIYADAGI O'YINLAR ORALIG'IDA VA HAR QANDAY HISOBDA 1 DAQIQAGACHA DAVOM ETADIGAN BITTA TANAFFUS Olish;
- KETMA-KET UCHRASHUVLAR ORASIDA DAM Olish UCHUN 5 DAQIQAGACHA TANAFFUS Olish;
- O'YIN DAVOMIDA SHIKASTLANGAN SHARIK YOKI RAKETKANI ALMASHTIRGANDAN SO'NG BIR NECHTA MASHQ ZARBALARINI BAJARISH;
- ZARURAT BO'LGANDA, TO'P O'YINDA BO'LGANDA, SHUNINGDEK, O'YINDAN KEYIN TO'PNI O'YIN ZONASIGA QAYTARISH UCHUN MAYDONNI TARK ETISH (HAKAM NAZORATI OSTIDA);
- RAKETKANI TEKSHIRUVDAN O'TKAZAYOTGAN VAQTDA ISHTIROK ETISH.




Time out hisob
yuritgich

- ▶ sport odob-axloq (sport etikasi) qoidalariga rioya qilish, raqiblar, hakamlar, Federatsiya rahbariyati va xodimlariga, shuningdek tomoshabinlarga nisbatan xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lish;
 - ▶ qoidalar, musobaqa reglamenti va uchrashuvlar jadvalini bilish va ularga rioya qilish;
 - ▶ - Hakamlarlik ko‘rsatmalariga, qabul qilgan xujjatlariga va tartiblariga rioya etish;
- ▶ uchrashuvlar rejalashtirilgan jadvalga muvofiq o‘yin boshlanishidan oldin tayyor bo‘lish (agar ishtirokchi uchrashuvga vaqtida kelmasa, (3-5 minut vaqt oralig‘ida) unga mag‘lubiyat hisoblanadi);
- ▶ barcha rejalashtirilgan uchrashuvlarni o‘tkazish (uzrli sababsiz musobaqani davom ettirishdan bosh tortgan ishtirokchi bosh hakam tomonidan diskvalifikatsiya qilinishi mumkin)
 - ▶ ozoda, toza va yaxshi tikilgan, ismi-sharifi o‘zbek lotin alifbosidagi harflar bilan ko‘ylakning rangiga qarama-qarshi bo‘lgan rangda va kamida 4 sm balandlikdagi harflar bilan yoki musobaqa tashkilotchilari tomonidan berilgan tartib raqamidagi o‘yin kiyimida musobaqalashish;
 - ▶ musobaqalarda sportchi qatnashadigan hududning/tashkilotning emblemasi tushirilgan formaga ega bo‘lish (shaxsiy shartnomada ko‘zda tutilgan paypoq, poyabzal va reklamaga nisbatan tatbiq etilmaydi);
 - ▶ o‘yinda ochkolarni qasddan yo‘qotmasdan o‘yinni to‘liq o‘tkazish (raqobat qilishni istamaganligi uchun ishtirokchi bosh hakam tomonidan bitta o‘yin, alohida dastur turi yoki butun musobaqa uchun diskvalifikatsiya qilinishi mumkin)
 - ▶ butun uchrashuv davomida o‘yin maydonida bo‘lish, maydonni tark etishga ruxsat etiladigan holatlar bundan mustasno
 - ▶ agar kerak bo‘lsa, o‘yin maydonini tark etish uchun bosh hakamdan ruxsat olish.
 - ▶ o‘yinchiga o‘yin maydonini tark etishga ruxsat berilgan sababdan qat’i nazar, unga o‘yinda 10 daqiqadan ko‘p bo‘lmagan muddatga yo‘q bo‘lishga yo‘l qo‘yiladi, agar o‘yinchi 10 daqiqadan oshiq vaqtda maydonga qaytmasa, u mag‘lubiyatga uchragan deb hisoblanadi (bu holda, tugallanmagan o‘yinda uning raqibiga o‘yinda g‘alaba qozonish uchun zarur bo‘lgan ochko beriladi, ushbu o‘yinning keyingi o‘ynalmagan o‘yinlari ham 11:0 hisobida raqib foydasiga hisoblanadi)

- ▶ o‘yin oxirida raqib va o‘yinni boshqargan hakamlar bilan qo‘l berib ko‘rishish orqali minnatdorlik bildirish (koronavirus pandemiyasi davrida o‘tkazilgan musobaqalar bundan mustasno
- ▶ sportchilar o‘yin boshlanishidan oldin va u tugagandan so‘ng, jamoa tarkibida saflanish.
- ▶ yakkalik musobaqalarida – hakamga maslahatchini ismi-sharifini ko‘rsatgan holda oldindan tanishtirish
- ▶ hakamlar va raqiblar bilan bahslashish
- ▶ o‘yinni ataylab kechiktirish
- ▶ sochiqdan uzoq muddat yoki berilgan vaqtdan tashqari foydalanish
- ▶ sharikga qasddan zarar yetkazish
- ▶ sharikni qasddan o‘yin maydoni tashqarisiga chiqarib yuborish
- ▶ Sharikni uzatishdan oldin uni stol, pol va raketkaga uzoq vaqt urish;
- ▶ jihozlarga (stol, to‘r, bortik), shuningdek, har qanday sport yoki shaxsiy mulkka zarar yetkazish yoki qasddan (biror narsa bilan) urish
- ▶ tomoshabinlar, raqiblar yoki rasmiy shaxslarga nisbatan hurmatsizlik (imo-ishoralar, raketka uloqtirish va hokazolar orqali) qilish

Сетка A О'g'il bolalar



Сетка B Qizlar



Сетка C Аралаш juftlik (Miks)



1- kun


Yakkalik bahslari ertalab soat 10: 00 da Qizlar

Yakkalik bahslari abeddan keyin soat 14: 00 da O'g'il bolalar

2 - kun

Final uchrashuvlarini Abedgacha. Abeddan keyin Aralash juftlik bahslari va finali

To'liq o'yin uchun 2 kun vaqt ketadi



SPORTCHI TALABALAR SPORT EPIKIROVKALARI BELGILANGAN TARTIBDA MAYDONGA TUSHISHI TALAB ETILADI



ARALASH JUFTLIK MIKS BAHSLARI

Miks bahslarida bir o'g'il bir qiz ishtirokida bo'lib
o'tadi

